

## QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION YONDASHUV

**Yoriyev Shohruh Abdusamat o‘g‘li**

“Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti”

Milliy tadqiqot universiteti 2-kurs magistanti

### ANNOTATSIYA

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini samarali rivojlantirish tizimining asosiy yeleменти innovatsion modelga. Shu munosabat bilan mahalliy qishloq xo‘jaligining innovatsion faolligini oshirish muammosi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish muhimligiga alohida to‘xtalib o‘tilgan

**Kalit so‘zlar:** innovatsiya, innovatsion texnologiya, innovatsion muhit, ko‘rsatkich, uslubiyat, samaradorlik, sifat, o‘simlikchilik, qishloq xo‘jaligi.

### ABSTRACT

the main element of the system of effective agricultural development in the Republic of Uzbekistan is the innovation model. In this regard, special attention was paid to the importance of conducting scientific research on the problem of increasing the innovative activity of local agriculture

**Keywords:** innovation, innovation technology, innovation environment, indicator, methodology, efficiency, quality, plant growing, agriculture.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, 2018-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sanoatini rivojlantirish konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17 aprel 2019 yildagi “**Sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi Farmoni, 2020 yil 28 yanvardagi «2020 yilda O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligini

diversifikatsiya qilish, tumanlar hududlarini tuproqqlim sharoitlariga mos bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish orqali ichki va tashqi bozor talablariga javob beradigan 680 raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishni ko‘paytirish hamda ilm-fan yangiliklarini keng joriy etish va mahsulot ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida: 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi farmonlari kabi qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Prezident farmonlari va qarorlariga muvofiq, 2020 yildan boshlab qishloq xo‘jaligi sohasida bozor mexanizmlarini kengaytirish, fermerlarning qiziqishini oshirish maqsadida davlat paxta va g‘alla uchun bozor tartibini bekor qilmoqda.

Qishloq xo‘jaligini samaradorligini oshirish maqsadida yurtimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda, qishloq xo‘jaligini tubdan o‘zgartiradigan, sohaga ilg‘or va innovatsion yechimlarni jadal joriy etadigan qishloq xo‘jaligini raqamli transformatsiyasiga qaratilgan qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda qishloq xo‘jaligi va agrosanoat majmuasi modernizatsiya, raqamlashtirish, intellektualizatsiyaga muhtoj. Xalqaro standartlarga javob beradigan va eng past xarajatlar va eng katta rentabellikka ega yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi, zamonaviy qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarish va amalga oshirish zarur.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini joriy yetish va qishloq joylarda xususiy mulkchilikni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar bo‘yicha tub chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan faol foydalanishni ko‘rishimiz mumkin. Xalq farovonligini oshirishda asosiy rollardan birini o‘ynaydigan agrar soha ham bundan mustasno emas.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi ishlari uchun 267 ming donadan ortiq qishloq xo‘jaligi mashina va uskunalari mavjud. Ulardan 38% ma’naviy va jismoniy jihatdan

eskirgan bo‘lib, 15 yildan ortiq vaqt davomida ishlamoqda. Bu, o‘z navbatida, agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Respublikada 1991 yildan 2003 yilgacha boshqaruvning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish talablariga va aholi mentalitetiga javob beradigan samarali shakllari faol izlandi.

Traktor va yuk tashuvchi mashinalarga o‘rnatilgan o‘ziyurar tizimlarning inson omili ta’sirini kamaytirish bilan bir qatorda, yana bir muhim afzalligi bor: ular don va yonilg‘i o‘g‘irligini kamaytirishga imkon beradi. Intellektual fermalarda nafaqat haydovchisiz transport vositalari, balki kamera va yuqori sezuvchi sensorlar bilan ta’minlangan uchuvchisiz uchish apparatlaridan ham foydalanish mumkin. Ular bir necha soat davomida qishloq xo‘jaligi uchastkalarida tadqiqot olib borish, kamera va sensorlar yordamida yiqqan ma’lumotlarni fermerga yetkazish, maydonlar elektron xaritasini 3D formatda yaratish, ekinlarni samarali o‘g‘itlash maqsadida me’yorlashtirilgan vegetatsiya indeksini hisoblash, olib borilayotgan ishlarni xatlash, yerni himoyalash va boshqa imkoniyatlarga ega. Hozirda uchuvchisiz qurilmalardan AQSh, Xitoy, Yaponiya, Braziliya va Yel mamlakatlari qishloq xo‘jaliklarida keng foydalanilmoqda.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsiya faoliyati samaradorligi va tovar ishlab chiqaruvchilarni innovatsiya jarayoniga jalb qilish darajasi ko‘p jihatdan jahon qishloq xo‘jaligi bozoriga kirib borish muvaffaqiyatini va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining raqobatbardoshligini belgilaydi.

Shu boisdan, respublika iqtisodiyotini erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida agrar sektorni tizimli va uzluksiz taraqqiyotini ta’minlash uchun uning tarmoqlarida innovatsion faollikni jadallashtirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni izchillik bilan joriy etish asosida samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi

Shuning barobarida qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanishni iqtisodiy baholash usullarini o‘rganib chiqish asosida samaradorlikni

belgilovchi barcha ko‘rsatkichlarni optimallashtirish bo‘yicha uslubiy yondashuv va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, ular asosida innovatsion faoliyatni boshqarishning samarali tizimini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)**

1. Altuxov A.I., Nechaev V.I. Ekonomicheskie problemy innovatsionnogo razvitiya zernoproduktovogo podkompleksa Rossii. – M.: Izdatelstvo Nasirddinova V.V., 2015. – 477 s
2. Uktamov, X. (2020). Mexanizmy ekonomicheskoy bezopasnosti predpriyatiy. Arxiv nauchnykh issledovaniy, 34.
3. Uktamov, X. (2020). Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda dehqon xo‘jaliklarining o‘rni. Arxiv nauchnykh issledovaniy, 34.